



# INGLIZ TILIDA YOZISH VA O'QISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Rishton tumani 2-son politexnikumining  
ingliz tili fani o'qituvchisi

**Abduvoxidova Shukuronaxon Qahramon qizining**  
Email. shukronaxonabduvoxidova100@gmail.com

**ANNOTATSIYA** Ushbu ilmiy maqola ingliz tilini o'rgatishda yozish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali metodlarini tahlil qiladi. Maqolada ingliz tilini o'rganishda o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan turli pedagogik yondashuvlar, metodlar va texnikalar muhokama qilinadi. O'quvchilarga ingliz tilida matnlarni to'g'ri tushunish, tez va samarali o'qish, hamda fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifodalash ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan usullar keltirilgan. Skimming, scanning, summarizing, predictive reading kabi o'qish metodlari va rejalshtirish, tahrirlash, va yozish mashqlari kabi yozish metodlari o'quvchilarga tilni aniq va samarali ishlatsizni o'rgatadi. Shuningdek, o'qish va yozish ko'nikmalarini integratsiya qilish va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning ahamiyati ta'kidlangan. Maqola o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uchun o'quvchilarning tilni o'rganishdagi muvaffaqiyatlarini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tahlil, bilim, ma'naviy, ijtimoiy, pedagogik, zamonaviy;

**Annotation.** This scientific article analyzes the effective methods of developing writing and reading skills in teaching English. The article discusses various pedagogical approaches, methods and techniques used to develop students' reading and writing skills in learning English. Methods aimed at improving students' ability to understand texts in English, to read quickly and efficiently, and to express their thoughts in a clear and understandable way are provided. Reading techniques such as



skimming, scanning, summarizing, predictive reading, and writing techniques such as planning, editing, and writing exercises teach students to use language clearly and effectively. The importance of integrating reading and writing skills and applying modern technologies to the educational process was also emphasized. The article contains practical recommendations for teachers and educational institutions aimed at increasing students' success in language learning.

**Key words.** Education, analysis, knowledge, spiritual, social, pedagogical, modern;

**KIRISH** Ingliz tili nafaqat global kommunikatsiya, balki zamonaviy ta'lim, ilm-fan, madaniyat va biznes sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ingliz tilini bilish dunyo bo'ylab odamlar uchun asosiy malaka hisoblanadi. Shuning uchun, ingliz tilini o'rganish jarayonida o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarga tilni o'zlashtirishda katta yordam beradi. O'qish va yozish ko'nikmalarini o'zaro bog'liq bo'lib, tilni amaliy ravishda ishlatish, tushunish va ifodalashda muhim rol o'ynaydi. O'qish — bu tilni o'rganishda asosiy ko'nikmalardan biridir. O'qish jarayonida o'quvchi matnni tushunish, muallifning fikrini anglash va matndan kerakli ma'lumotlarni ajratib olishni o'rganadi. Ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali o'quvchilar nafaqat tilni o'rganadilar, balki muayyan madaniy kontekstlarni tushunib, so'z boyliklarini kengaytiradilar.



O‘qish jarayoni, shuningdek, o‘quvchilarga grammatika va sintaksisni o‘zlashtirishda yordam beradi, chunki matnlarni tahlil qilish ularning til tuzilmalari va qoidalari haqida bilimlarini mustahkamlaydi. Yozish esa ingliz tilini o‘rganishda, nafaqat tilni tushunish, balki fikrlarni tartibli va aniq ifodalash imkonini beradi. Yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilarga o‘z fikrlarini to‘g‘ri va tushunarli tarzda ifodalashni o‘rgatadi. Yozish jarayonida o‘quvchilar grammatika va imlo qoidalalarini amalda qo‘llashni o‘rganadilar, shuningdek, ularning fikrlash va izlanish qobiliyati rivojlanadi. Yozish nafaqat tilni o‘rganishda, balki o‘quvchilarga ijodkorlik va analitik fikrlashni rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Ingliz tilida yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quvchilarni turli yozma topshiriqlar bilan shug‘ullantirish kerak,

bu esa ularning mustaqil fikrlash va yozish ko‘nikmalarini yanada kuchaytiradi. O‘qish va yozish ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantirish o‘quvchilarga o‘z bilimlarini yanada mustahkamlash, tilni samarali ishlatish va amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Ingliz tilini o‘rgatishda bu ikki ko‘nikmani birlashtirish, o‘quvchilarga o‘qishdan olingan ma'lumotlarni yozish orqali ifodalashga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilar o‘qigan matnlarini tahlil qilib, o‘z fikrlarini yozma ravishda ifodalash orqali o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar.



Bu jarayon, o‘quvchilarning tilni tushunish va uni aniq ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ingliz tilini o‘rganish jarayonida yozish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhimligi, ularning ta’lim jarayoniga qo‘shtgan hissasi va tilni o‘zlashtirishdagi o‘rni haqida so‘nggi yillarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. O‘quvchilarga bu ko‘nikmalarni rivojlantirishda turli pedagogik metodlar va innovatsion yondashuvlar yordam beradi. Skimming, scanning, summarizing va

predictive reading kabi o‘qish metodlari o‘quvchilarga matnni samarali o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini oshiradi, yozish metodlari esa o‘quvchilarga aniq, to‘g‘ri va tushunarli matnlar yaratish imkonini beradi. Ushbu maqolada ingliz tilida yozish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodlar va pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqola, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini yaxshilashning muhim metodologik asoslarini, o‘qituvchilarga bu ko‘nikmalarni rivojlantirishda qanday metodlar va yondashuvlar yordam berishini, shuningdek, o‘quvchilarga ingliz tilida yanada samarali va muvaffaqiyatli o‘qish va yozish imkoniyatlarini qanday yaratishni ko‘rsatadi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI VA NATIJALARI . O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlari.** O‘qish — bu tilni o‘rganishda eng asosiy ko‘nikmalardan biridir. O‘qish orqali o‘quvchi so‘z boyligini, grammatika va sintaksisni o‘rganadi, shuningdek, tilni muloqotda qanday ishlatilishini tushunadi. O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin: Skimming va scanning texnikalari. Skimming — matnning umumiyligini mazmunini tezda tushunish uchun o‘qishdir. Scanning esa, ma’lum bir ma’lumotni topish maqsadida o‘qishdir. Ushbu texnikalar o‘quvchilarga matnni tez va samarali o‘qish va ma’lum bir ma’lumotni tezda topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Qisqacha tahlil qilish

(summarizing)

Matnni qisqacha tahlil qilish o‘quvchilarga o‘qiganlarini yodda saqlash va asosiy fikrlarni ajratish ko‘nikmalarini beradi. Bu metod o‘quvchilarga matnni to‘g‘ri tahlil qilish, undagi asosiy g‘oyalarni ajratish va xulosalar chiqarishni o‘rgatadi. Prediktiv o‘qish (predictive reading) O‘quvchilarga matnni o‘qishdan oldin, ularning qiziqishini va tasavvurini oshirish uchun matnning nomi, bosh sahifalari va rasm yoki grafiklarini ko‘rib chiqishni so‘rash mumkin. Bu metod o‘quvchiga o‘qish jarayonini boshlashdan oldin matnning umumiyligini taxmin qilish imkonini beradi. Interaktiv o‘qish Matn bilan o‘zaro faoliyatda bo‘lish, ya’ni o‘quvchilarga matn haqida savollar berish, ularni javoblarni izlashga undash va shuningdek, o‘qish jarayonida o‘quvchilar bilan muloqot qilish o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Interaktiv o‘qish

metodlari matnni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlari yozish — bu tilni o‘rganishda o‘qish bilan birga rivojlanishi kerak bo‘lgan ko‘nikmadir. Ingliz tilida yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin. Rejalashtirish va tuzish (planning and drafting)

Yozish jarayonida o‘quvchilarga matnni yozishdan oldin reja tuzishni va ularni qismlarga ajratishni o‘rgatish muhimdir. Yozishdan oldin asosiy fikrlar va g‘oyalar keltirilgan reja tuzish, matnning aniq va tartibli bo‘lishini ta‘minlaydi.



Reja tuzish o‘quvchilarga yozish jarayonida yo‘l-yo‘riq beradi va yozishning samaradorligini oshiradi. Yozilgan matnni tahrir qilish va xatolarni to‘g‘irlash orqali o‘quvchilar o‘z yozish ko‘nikmalarini yaxshilashadi. Bu metod o‘quvchilarga grammatika, imlo va uslubiy xatolarni aniqlashni o‘rgatadi. Tahrir qilish jarayonida o‘quvchilar matnni yaxshilash va mukammallikka erishishga intilishadi. O‘quvchilarga muntazam ravishda yozma mashqlar va amaliyotlar taqdim etish, ularning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhimdir. Yozish mashqlari o‘quvchilarga fikrlarini aniq ifodalash va tuzilgan matnni yaxshilashga yordam beradi. Qayta yozish (re-writing) yozilgan matnni qayta yozish o‘quvchilarga o‘z fikrlarini yaxshiroq ifodalash va matnning sifatini oshirishga imkon beradi. Bu metod o‘quvchilarga matnni yangilash va yaxshilashni o‘rgatadi. Yozish va o‘qish ko‘nikmalarini integratsiya qilish yozish va o‘qish ko‘nikmalarini birlashtirish, o‘quvchilarga har ikki ko‘nikmani bir vaqtning o‘zida rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Masalan, o‘quvchilar o‘qigan matnlariga asoslanib, o‘z fikrlarini yozishlari mumkin. Shu tarzda, o‘quvchilar nafaqat o‘qiganlarini tushunishadi, balki o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalashni ham o‘rganadilar. O‘qish va yozishning birlashgan metodlari o‘quvchilarga tilda ko‘proq ishtirok etish va uni samarali ishlatish imkonini beradi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki Ingliz tilida yozish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish til o‘rganish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ularning samarali rivojlanishi o‘quvchilarning tilni to‘g‘ri va aniq ishlatish qobiliyatini oshiradi. Ushbu maqolada, ingliz tilini o‘rgatishda yozish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda foydalaniladigan metodlar va yondashuvlar muhokama qilindi. Har bir metod, o‘quvchilarga tilni o‘zlashtirishda turli jihatlardan yordam beradi va ularning bilimlarini amaliyotda qo‘llashda muhim rol o‘ynaydi. O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda, skimming va scanning kabi texnikalar o‘quvchilarga matnni tez va samarali o‘qish, ma’lumotlarni ajratib olish va asosiy fikrlarni tushunish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, summarizing va predictive reading kabi usullar,

o'quvchilarning matnni yanada chuqurroq anglashiga, fikrlarni tizimli ravishda tuzishga va matnni tahlil qilishga yordam beradi. O'qish jarayonida o'quvchilar nafaqat so'z boyligini oshiradilar, balki tilni o'rganishdagi o'zlarini yanada ishonchli his qilishadi. Interaktiv o'qish metodlari esa, o'quvchilarni matn bilan faol ishlashga undaydi, bu esa ularning tanqidiy fikrlash va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda esa rejalashtirish, tahrirlash va yozma mashqlarni muntazam ravishda amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Rejalashtirish orqali o'quvchilar matn tuzishda aniq yo'nalishni belgilaydilar, bu esa yozilgan matnnning mazmuni va tuzilishini yaxshilaydi. Yozish jarayonida o'quvchilar grammatika va imlo qoidalarini qo'llashni o'rganadilar, bu esa ularning tilni to'g'ri ishlatishdagi qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, o'quvchilarga o'z matnlarini tahrirlash va qayta yozish orqali yozish ko'nikmalarini mukammallashtirish mumkin. Bu jarayon, o'quvchilarning yanada aniq va samarali yozish uslublarini rivojlantirishga yordam beradi. Ingliz tilida yozish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda metodlarni birlashtirish va integratsiya qilish juda muhimdir. O'qish va yozish jarayonlarini o'zaro bog'lab, o'quvchilarga matnni o'qib, tushunib, so'ngra o'z fikrlarini yozma ravishda ifodalashga yordam beradi. Ushbu yondashuv, o'quvchilarni yanada mustaqil fikrlashga undaydi va tilni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. O'qish va yozishning integratsiyasi, o'quvchilarni matnni o'qish va yozishdagi barcha asosiy ko'nikmalarni bir vaqtda rivojlantirishga imkon yaratadi, bu esa til o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarga yozish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan ham foydalanish muhimdir. Onlayn platformalar, mobil ilovalar va interaktiv dasturlar o'quvchilarga matnlarni o'qish va yozish ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarning o'qish va yozish jarayonlariga qiziqishini oshiradi va darslarni yanada interaktiv va samarali qiladi. Shuningdek, o'qituvchilarga o'quvchilarning yutuqlarini kuzatish va individual yordam ko'rsatishda yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilida yozish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarning tilni o'zlashtirishda erishgan

muvaqqiyatlarini kuchaytiradi. O‘qish va yozishning integratsiyasi, zamonaviy metodlar va texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarning tilni aniq va samarali ishlatalish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilar uchun bu metodlar va yondashuvlar, o‘quvchilarni tilni o‘rganishda yanada samarali va muvaffaqiyatli bo‘lishiga imkon yaratadi. Shunday qilib, o‘quvchilarning ingliz tilidagi yozish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning til o‘rganishdagi umumiyligini yutuqlarini oshiradi va ularni dunyo bo‘ylab muvaffaqiyatli muloqot qilishga tayyorlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov Jamol. Chet til o‘qitish metodikasi. “O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012.
2. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
3. Отабоева, М. Р. Чет tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: 4.https://moluch.ru/archive/138/39058/ (дата обращения: 27.04.2020) Xatamova N. Q., Mirzayeva M.N. “INGLIZ TILI DARSLARIDA 5. QO’LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo’llanma), Navoiy, 2006, 40 bet. 5. Xoldorova M., Fayziyeva N., Rixsittilayeva F. “CHET TILINI O’QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
6. Hoshimov O’., Yoqubov I. “INGLIZ TILI O’QITISH METODIKASI” (o‘quv qo’llanma) Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003
7. Faxriddin B., No‘monbek A. ABS SISTEMASI BILAN JIHOZLANGAN M1 TOIFALI AVTOMOBILLARNING TORMOZ SAMARADORLIGINI MATEMATIK NAZARIY TAHLILI //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – Т. 4. – №. 1. – С. 333-337.
8. Xuzriddinovich B. F. et al. ABS BILAN JIHOZLANGAN AVTOMOBILNI TORMOZ PAYTIDA O ‘ZO ‘ZIDAN VA MAJBURIY TEBRANISHLARINI

TORMOZ SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI T AHLIL QILISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 47. – №. 4. – С. 81-87.

9. Karshiev F. U., Abduqahorov N. ABS BILAN JIHOZLAHGAN M1 TOIFALI AVTOMOBILLAR TORMOZ TIZIMLARINING USTIVORLIGI //Academic research in educational sciences. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 787-791.

10.Qurbanazarov S. et al. ANALYSIS OF THE FUNDAMENTALS OF MATHEMATICAL MODELING OF WHEEL MOVEMENT ON THE ROAD SURFACE OF CARS EQUIPPED WITH ABS //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – Т. 4. – №. 8. – С. 45-50

11.Каршиев Фахридин Умарович, Н.Абдуқаҳоров ИЗУЧЕНИЕ МИКРОСТРУКТУРЫ СТАЛИ В МАТЕРИАЛОВЕДЕНИИ//<https://www.iupr.ru/6-121-2024>

12. Xusinovich T. J., Ro'zibayevich M. N. M1 TOIFALI AVTOMOBILLARNI TURLI MUHITLARDA TORMOZLANISHINI T AHLIL QILISH VA PARAMETRLARINI O'RGANISH.

13.Махкамова Н.Р. Социально-нравственные и духовные процессы в Узбекистанском обществе конца XIX – начала XX вв. // Общественное мнение. Права человека. – Тошкент, 2001, №2(14). – С. 85-91.

14. Муминов И.М. Избранные произведения в 4-х томах. – Ташкент, 1976, Т.2. – С. 37.

15. Салижанова Г.Ф. Учебно-просветительские очаги в Туркестане, их общественное значение (конец XIX – начало XX вв.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1998. С. 22.

16. Сравнение программ русско-туземных школ и новометодных мактабов. // Туркистон вилоятининг газети. 1915, №84, 85.

17. Шамсутдинов Р., Расулов Б. Туркистон мактаб ва мадрасалари тарихи. – Андижон: Мерос, 1994. – Б. 60.